



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



O'zbekiston
Milliy Pedagogika
Universiteti



№1(2)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 444 sahifa,
20-yanvar, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oglu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **№C-5669363** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabga tayyorlov guruhi tarbiyalanuvchilarini maktab ta'limiga tayyorligini aniqlash	16
<i>Akramova Dildora Ergashboy qizi</i>	
Bola tarbiyasida o'yinning ahamiyati	21
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, O'ktamova Nasiba Ravshan qizi</i>	
O'quvchilarning loyiha-tadqiqot faoliyatini tashkil etishning ilmiy asoslari	25
<i>Sobirova Nilufar Azimboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida pedagogik jarayonni tashkil etish	29
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Ko'zibayeva Nasiba O'tkir qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda sensor tarbiyani rivojlantirish texnologiyalari	32
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Allaberdiyeva Mardona O'tkirbek qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarni jismoniy tarbiyalash mazmuni va vazifalari.....	37
<i>Choriyeva Durdona Anvarovna, Mirsharfova Shahinabegim Saidabbos qizi</i>	
Gandbolchi sportchilarni jismoniy tayyorgarligida harakatli o'yinlarning tarbiyaviy rivojlantiruvchi vazifalari	41
<i>Ibodullayeva Munira Atabek qizi</i>	
Boshlang'ich sinflarda dars samaradorligini oshirishda noan'anaviy usullardan foydalanish samaradorligi.....	44
<i>Yusufaliyeva Gulnora Abduraxmonovna</i>	
Modern Requirements for a Teacher's Pedagogical Skills in the Context of Digital Transformation in Education.....	49
<i>Abira Bakhramova</i>	
Ta'lim muassasalarida o'smir yoshlarning ijtimoiylashuv jarayonini samarali tashkil etishga yordam beruvchi pedagogik omillar va shart-sharoitlar	54
<i>Artikova Gulnoza Xasanovna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida iqtisodiy tarbiya berishning nazariy-pedagogik asoslari	57
<i>Mamadaliyeva Nilufar Bahodirovna</i>	
Kognitiv lingvistika va konseptologiya masalalari	60
<i>Meyliqulova Manzura Abdullayevna</i>	
Developing Law Students' Writing Competence Through the IRAC Method in Legal English Classes: A Comprehensive Study at TSUL.....	63
<i>Noila Mustafoeva</i>	
Tarixiy obidalarining restavratsiya jarayonlarining o'rganilish tarixi	67
<i>Ochilov Davron Bahodir o'g'li</i>	
Oliy ta'limda baholash jarayonini avtomatlashtirishda sun'iy intellekt texnologiyalarining qo'llanishi.....	72
<i>Ovxunov Iqboljon Abdunabiyevich, Mamadaliyeva Kamolaxon Xayrullo qizi</i>	
Tabiiy yorug'lik va barqaror energiya manbalarini integratsiyalashgan mini home loyihasi.....	76
<i>Djuraboyev Maqsudbek Karimbek o'g'li, Qodirjonov Oyatillo Abdulboqi o'g'li</i>	
Talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishda madaniy meros vositalarining pedagogik ahamiyati.....	80
<i>Rajabova Matluba Toshkentboy qizi</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti tarbiyachilarining umummadaniy kompetensiyalarini rivojlantirish texnologiyalari.....	83
<i>Saidova Nigora Olimovna, Jo'rayeva Nilufar Rustamjon qizi</i>	
Raqamli kommunikatsiyalarni o'smirlar shaxsiyatining rivojlanishiga ta'siri	86
<i>Shomurotova Nigoraxon Nabijonovna</i>	
Talabalarning chizma geometriya fanini mustaqil bilish faoliyatiga oid kompetensiyalarini "Visio" dasturi vositasida rivojlantirish metodikasi	90
<i>Tashimov Nurlan Erpolatovich</i>	



Shaxslararo munosabatlar – ijtimoiy pedagogik muammo sifatida.....	94
Uralova Muxabbat Sanjar qizi	
O'zbek tili darslarida raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish tajribasi	98
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Психологическая готовность разведенных людей к вступлению в новый брак и приоритеты при выборе партнера.....	101
Саидвалиева Шодия Рихсихужа кизи	
Воспитание любви к прекрасному у дошкольников в развивающей предметно-пространственной среде: теоретико-методический аспект.....	107
Терехова Ольга Евгеньевна, Темирова Барно Кёмхоновна	
Методика формирования наблюдательности у детей 6–7 лет в процессе целенаправленных прогулок-наблюдений.....	111
Терехова Ольга Евгеньевна, Шокиржоновна Мохира Илхомжон кизи	
Bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy pedagogik faoliyatga tayyorlash texnologiyalari	115
Artikbayeva Aziza Abror qizi	
Zamonaviy darslarda guruhlarda ishlash metodikasi	118
Berdiyeva Lobar Norqobulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faol rivojlantiruvchi muhitni tashkil etishda STEAM ta'lim texnologiyasidan foydalanish.....	120
Esanova Maysara Umirovna	
Logopediyada axborot texnologiyalarini qo'llash metodlari	124
Feruza Yusupova Akildjanovna	
Axborot texnologiyalarining ta'lim jarayonidagi o'rni va rivojlanish bosqichlari.....	130
Qodirov Farrux Ergash o'g'li, Allanazarova Anora Muxobir qizi	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ilmiy-ijodiy kompetentsiyalarini rivojlantirish	134
Umarov Xusniddin	
Bo'lajak talabalarining individual yondashuv asosida kasbiy-ijodiy ko'nikmalarini rivojlantirish	138
Arslonova Gulsora Kurbonovna	
Ona tili darslarida til kompetentsiyasini kognitiv-semantik yondashuv asosida shakllantirish	142
Mo'minova Go'zalxon G'ulamjanovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy tafakkurini rivojlantirishning pedagogik shart-sharoitlari	147
Maxliyo Turotova Erkin qizi	
Talabalarining kreativligini musiqiy-nazariy fanlar vositasida oshirish samaradorligi	153
Urinova Sabina Shuxrat qizi	
Imijning ijtimoiy-psixologik fenomen sifatida talqini	160
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna	
Inklyuziv kompetensiya tushunchasining ilmiy-nazariy asoslari	163
Abdubannobova Mahliyo Abdurashid qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ijtimoiy-emotsional kompetentsiyalarini rivojlantirish texnologiyalari	167
Abdurasulova Dilnoza Abdug'ani qizi	
Muxammas (taxmis) janrining o'zbek she'riyatidagi tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy poetik talqinlari	170
Avazova Sitara	
Maktabgacha ta'lim tashkiloti va ota-onalar hamkorligining asosiy shakllari.....	173
Babayeva Dono Razzakovna, Erkinova Madinabonu Otabek qizi, Xolmatova O'g'li Tojiddin qizi	
Yangi taraqqiyot davrida talaba-yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlashning ijtimoiy-pedagogik muammo sifatida	177
Botirova Zohida Doniyor qizi	
Logoritmikada sportga asoslangan o'yinlar	180
Dilfuza Ochilova Zayniddinovna	
Jismoniy tarbiyaning o'quvchilarning kognitiv rivojlanishiga ta'siri (Andijon shahridagi Prezident maktabi tajribasi asosida).....	184
Ibragimov Shuhratbek Iminjonovich	

Bolajak tarbiyachilarni tarbiyaviy faoliyatga tayyorlashda integrativ yondashuvning zaruriyati	188
Karimova Feruzaxon Zakirovna	
Effective Techniques of Teaching Foreign Language Classes: a Sample of The 4CS Method	191
Khaitmuratova Zarina Sobirdjanovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual imkoniyatlarini tabiat bilan tanishtirish orqali shakllantirish ..	193
Maxmudova Durdona Mirkarimovna	
O'quvchilarning kasbiy ma'naviy dunyoqarashini shakllantirishning pedagogik xususiyatlari	196
Mutallibjonov Ma'rufjon	
Maktabgacha yoshdagi bolalarni kun tartibini to'g'ri tashkil etish	200
Muxtorova Mohira Ma'rufjon qizi	
Aksiologik yondashuv asosida altruistik ko'nikmalarni shakllantirish jarayonida ijtimoiy faoliyatni amalga oshirish	204
Norboyeva Moxigul Shavkat qizi	
O'smirlarda agressiv xulq-atvorini psixologik o'rganishning o'ziga xos xususiyatlari	207
Norqulova Dildora Shavkat qizi	
Raqamlashtirish jarayonida bo'lajak muhandislarni ishlab chiqarish-texnologik faoliyatiga tayyorlashning dasturiy-metodik ta'minoti	211
Nurov O'tkir Xudoyberdiyevich	
Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etilish	214
O'roqova Zilola Salomovna	
Pedagogika ta'lim yo'nalishi talabalarida amaliy tayyorgarlik tushunchasi va uning mazmun-mohiyati.....	217
Qaramanov Obid Xudayberdiyevich	
Pedagoglar uchun sun'iy intellekt asosidagi shaxsiylashtirilgan ta'lim imkoniyatlari	221
Qarshiyev Jamshid Murotaliyevich	
Talabalarda psixologik moslashuvchanlikda refleksiya mohiyati va kognitiv qobiliyatni rivojlantirish samaradorligi.....	226
Ravshanova Nargiza Norboyevna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida integrallashgan mashg'ulotlarni tashkil etish	230
S. Irisova	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida marketing faoliyatini tizimli tashkil etishning nazariy asoslari	233
Sadikova Dilafuz Xusanovna, Qo'chqorova Munisa Anvar qizi	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning dialogik nutqini xalq ertaklari asosida rivojlantirish	237
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Abduraufova Muxayyo Xabibullo qizi	
Bolalarni maktabga tayyorlashda psixologik yondashuv	241
Seitmuratova Venera Jumamuratovna, Sanoqulova Gulasal Nurillo qizi	
Sun'iy intellektni tibbiy oliy ta'lim o'quv dasturlarini ishlab chiqishda qo'llash: innovatsion yondashuvlar va tajribalar	246
Toxirova Farida Olimjonovna	
Talabalarni estetik tarbiyalashda milliy xalq o'yinlaridan foydalanish modeli.....	251
Usarov Murodjon Mamarasul o'g'li	
Xalqaro kimyo olimpiadalariga o'quvchilarni tayyorlashda xalqaro baholash tadqiqotlariga asoslangan kreativ topshiriqlar va fanlararo integratsiyadan foydalanish metodikasi	254
Usmanov Baxtiyor Xabibullayevich	
Xoja (Sayyid Poshshoxoja ibn Abdulvahhobxo'ja) va uning asarlarining o'zbek nasridagi o'ri va ahamiyati.....	258
Valijonova Mahzunabonu	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari boshqaruvida diversifikatsiya: tizimli yondashuv va rivojlanish strategiyalari	261
Xakimova Sevara Shavkat qizi	
STEAM texnologiyasini nodavlat ta'lim tashkilotlarida ommalashtirishning ijobiy tomonlari.....	264
Xalokova Maksudaxon Ergashevna, Melnikova Zaynura	
Muhammad Sodik Qoshg'ariy asarlarida ma'naviy-axloqiy tarbiya nazariyasi.....	267
Moxira Niyozqulova Nuraliyevna	



Sun'iy intellekt texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ona tili fanini o'qitish kompetentligini rivojlantirish metodikasi (AQSh tajribasi).....	270
<i>Olimjonova Dilnavoz Maribjon qizi</i>	
Xalqaro baholash dasturlari mohiyati va ahamiyati	274
<i>Vohidova Ibodot Hurmatullayevna</i>	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlari ta'lim-tarbiya jarayonida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv.....	277
<i>Xujamiyarov Sa'dullo Choriyevich</i>	
Davlat-xususiy sheriklik asosidagi nodavlat maktabgacha ta'lim tashkilotlarida jamoatchilik nazorati samaradorligini oshirish mexanizmlarini takomillashtirish.....	281
<i>Xusanova Dilraboixon Botiraliyevna</i>	
Talabalarining jismoniy tayyorgarligida suzish mashg'ulotlarining ta'siri	285
<i>Zuxriddin Nasibovich Boboshev</i>	
Bo'lajak o'qituvchilarni milliy-ma'naviy qadryatlar asosida tayyorlashning o'ziga xos xususiyatlari	289
<i>Abdullayev Muxammadimin Egamberdiyevich, Dadabayev Akramjon Askaraliyevich</i>	
Использование чат-ботов в образовательном процессе.....	294
<i>Мадаминова Наргизахон Жахонгир кизи</i>	
Формирование гендерной культуры детей старшего дошкольного возраста в контексте государственной стратегии Узбекистана	298
<i>Намазбаева Лола Закировна, Тиллабаева Малика Хабибуллаевна</i>	
STEAM технологии в дошкольном образовании	302
<i>Садикова Дилафруз Хусановна</i>	
Системная модель социально-эмоционального обучения в Узбекистане: интеграция подходов, основанных на школьном образовании и партнерстве семьи и школы	307
<i>Санакулова Нигора</i>	
Oila qurish yoshidagi talabalar psixologik xususiyatlari.....	311
<i>Qo'ziyeva Gulzoda Shermat qizi</i>	
Ingliz tili nutq faoliyati turlarini rivojlantirishda leksik-assotsiativ tarmoqlardan foydalanishning lingvodidaktik asoslari.....	315
<i>Mirzakamolova Maftuna Rahimjon qizi</i>	
Talabalarga ingliz tilidagi matnlarni kommunikativ metod yordamida o'qish texnikasini takomillashtirish usullari.....	318
<i>Mo'minova Mahliyo Axrorjonovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini o'quvchilarning mantiqiy fikrlashini rivojlantirishda ona tili mashqlarining roli	321
<i>Boltayeva Guzal Tolibovna</i>	
Bo'lajak tarbiyachilarning kreativ kompetensiyalarini rivojlantirish	324
<i>Ziyayeva Umida Turaxodjayevna</i>	
Maktabgacha hamda boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi tizimini modernizatsiya qilishning innovatsion istiqbollari	327
<i>A'zamov Ruhullo Mahmudjon o'g'li</i>	
Boshlang'ich sinflarda informatika fanini o'qitishning maqsadlari va vazifalari.....	333
<i>Alikulova Bibisora Abdulvokhobovna</i>	
Bola shaxsini rivojlantirishda axborot-kommunikatsion texnologiyalarning pedagogik ahamiyati	336
<i>Azimova Dilnoza Sherzodovna</i>	
Raqamli didaktika sharoitida oliy ta'limni raqamlashtirishning nazariy asoslari va pedagogik xususiyatlari	339
<i>Berdikulova Shaxnoza Erkinjon qizi</i>	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatini shakllantirishda dars va darsdan tashqari mashg'ulotlarda shaxmat o'yinidan foydalanish imkoniyatlar	343
<i>Boboqulov Chori Urolovich</i>	

O'zbek tilidagi "kasb-hunar" va "lavozim-amal" konseptlarining hozirgi zamon o'zbek tili konseptosferasidagi o'rni	348
Dexqonova Muattarxon Ilxomovna	
O'quv jarayonida ijtimoiy tarmoqlar orqali bilim almashishning didaktik imkoniyatlari va metodologik asoslari	352
Ernazarov Alisher Ergashevich, Pimkulova Stora Boltayevna	
"Intellekt xarita" yordamida o'quvchilarga qattiq jismlarning solishtirma issiqlik sig'imini mavzusini tushuntirish va ularning to'la fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish	358
Eshboboyeva Muxlisa Zavqiy qizi	
Inklyuziv ta'lim texnologiyalari	363
Fayzullayeva Shoira Shorahmatovna	
Oliy pedagogik ta'lim tizimida hamkorlikda ta'lim nazariyasi va amaliyoti	366
Hojiyeva Zulfiya O'ktamovna	
Hikoya tuzishga o'rgatish maktabgacha yoshdagi bolalarning bog'lanishli nutqini rivojlantirishning muhim vositasi sifatida	369
Imixanova Nodira Saidburxon qizi	
Professional Competency Development of Future English Language Teachers: A Framework for the 21 st Century	374
Kamoldin Tadjiboyev	
Bo'lajak tarbiya fani o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligi jarayonida raqamli texnologiyalardan foydalanishning nazariy asoslari	378
Nosirova Dilfuza	
Inklyuziv sinf muhitida zaif eshituvchi bolalar bilan musiqa mashg'ulotlarini tashkil etishning nazariy yondashuvlari	383
Qizlarxon Isomova	
Raqamli ta'lim muhitida mustaqil ta'limni rivojlantirishda zamonaviy texnologiyalar	389
Shabdullayeva Lazokatxon Orifbekovna	
Boshlang'ich sinflarda perimetr, yuza va hajmni o'rganish metodikasi samaradorligini shakllantirish	392
Shodmonova Madina Otabek qizi	
Chiziqli operatorlarning spektral xossalari	398
Sultonboyeva Zuhra Bobomurod qizi	
Qisqa masofaga yuguruvchilar ish qobiliyatini oshirish usullari	402
Utayev Z. M.	
Neyropedagogik yondashuv asosida 9–11 yoshli o'quvchilarda ingliz tilida matnni o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda ijro funksiyalarining o'rni	408
Xolboyeva Nodiraxon Abdumalik qizi	
Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash muammosining dolzarbligi	413
Yo'ldosheva Dilnura Nizomjon qizi	
Bo'lg'usi tarbiyachilarda grafik organayzerlar vositasida ekologik tarbiyani shakllantirish usullari	416
O. Xo'janiyozova, Yuldashova Sanamjon Bobomurod qizi	
Взаимодействие воспитателей и родителей в процессе формирования нравственных представлений дошкольников	419
Жураева Наргиза Таировна, Абдуллаева Халимахон Дилёрна	
Развитие государственно-частного партнёрства в сфере дошкольного образования Республики Узбекистан	423
Курбанова Нуржамал Бахбергеновна	
Talaba qizlarning jismoniy va funksional tayyorgarligini shakllantirishning ilmiy metodologik asoslari	426
M. M. Ma'rufov, Sh. R. Ma'rufova	
Развитие языковых навыков у дошкольников через игровые методы обучения английскому языку	430
Садикова Шоиста Акбаровна	



“Узбекский текст в русской литературе XX–XXI веков...”	433
Сулаймонова Дурдонахон Равшан кизи, Иванова Ирина Николаевна	
Механизмы использования цифровых педагогических технологий для обеспечения непрерывности образовательного процесса учащихся начальных классов в условиях длительного лечения.....	437
Турсунова Д. З., Холлиева Н. Х.	
Патриотическое воспитание будущих педагогов: совершенствование методики формирования любви к родине в условиях профессиональной подготовки	440
Шарипова Холида Дехкановна	

NEYROPEDAGOGIK YONDASHUV ASOSIDA 9–11 YOSHLI O'QUVCHILARDA INGLIZ TILIDA MATNNI O'QIB TUSHUNISH KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA IJRO FUNKSIYALARINING O'RNI

Xolboyeva Nodiraxon Abdumalik qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada 9–11 yoshli o'quvchilarda ingliz tilida matnni o'qib tushunish jarayonini neyropedagogik yondashuv asosida takomillashtirishda ijro funksiyalarining o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda nazariy tahlil, sinf kuzatuv va pedagogik diagnostika qo'llanildi. Natijalar ishchi xotira, ingibitsiya va kognitiv moslashuv o'qib tushunish strategiyalarini barqarorlashtirishini ko'rsatdi. Ilmiy hissa ijro funksiyalariga tayangan didaktik modelni taklif etishdan iborat.

Kalit so'zlar: neyropedagogika, ijro funksiyalari, ishchi xotira, ingibitsiya, kognitiv moslashuv, o'qib tushunish, boshlang'ich sinf.

Abstract: This article examines the role of executive functions in improving English reading comprehension among 9–11-year-old learners through a neuropedagogical approach. The study combines theoretical analysis, classroom observation, and pedagogical diagnostics. Findings indicate that working memory, inhibition, and cognitive flexibility stabilize comprehension strategies and reduce errors. The contribution lies in proposing a didactic model grounded in executive-function development.

Key words: neuropedagogy, executive functions, working memory, inhibition, cognitive flexibility, reading comprehension, primary school.

Аннотация: В статье анализируется роль исполнительных функций в развитии понимания прочитанного на английском языке у учащихся 9–11 лет на основе нейропедагогического подхода. Использованы теоретический анализ, наблюдение в классе и педагогическая диагностика. Результаты показывают, что рабочая память, ингибция и когнитивная гибкость стабилизируют стратегии чтения. Научный вклад состоит в предложении дидактической модели, опирающейся на исполнительные функции.

Ключевые слова: нейропедагогика, исполнительные функции, рабочая память, ингибция, когнитивная гибкость, понимание прочитанного, начальная школа.

KIRISH

9–11 yosh oralig'i o'qish faoliyati va tilni o'zlashtirishning mazmunan murakkablashadigan bosqichi bo'lib, aynan shu davrda o'quvchi matndan ma'no chiqarish, ma'lumotni tanlab olish, muallif niyatini sezish va o'qilganini qayta ifodalash kabi yuqori darajadagi kognitiv operatsiyalarni o'zlashtiradi. Ingliz tili o'qitish amaliyotida esa o'qib tushunish ko'nikmasi ko'pincha leksik-grammatik tayyorgarlik bilan cheklanib, matnni qayta hikoya qilish yoki savol-javob orqali nazorat qilinadi. Bunday yondashuv matnni tushunishning kognitiv mexanizmlarini, xususan, e'tiborni boshqarish, ishchi xotirada ma'lumotni ushlab turish, keraksiz axborotni bostirish va strategiyani vazifaga mos ravishda qayta tanlash kabi ijro funksiyalarini yetarli darajada hisobga olmaydi. Natijada bir xil til materialini sharoitida ham o'quvchilar o'rtasida tushunish darajasi keskin farqlanadi, xatolar esa ko'pincha "lug'at bilmaslik" bilan izohlanadi, holbuki muammo matnni qayta ishlashni boshqaruvchi ijro tizimining yetarlicha qo'llab-quvvatlanmasligida bo'lishi mumkin.

Neyropedagogik yondashuv ta'lim jarayonini miya faoliyatining rivojlanish qonuniyatlari, yoshga xos neyrokognitiv o'zgarishlar hamda o'rganishning biologik asoslari bilan uyg'unlashtirishga intiladi. Zamonaviy tadqiqotlarda ijro funksiyalari o'qish, yozish va matematik kompetensiyalarning muhim prediktori sifatida talqin qilinadi; ayniqsa, ishchi xotira va inhibitsiya o'qish jarayonida matnning lokal ma'nolarini global mazmun bilan bog'lash, xatoli taxminlarni to'xtatish va asosiy g'oyani tanlashda hal qiluvchi omil ekani ta'kidlanadi ^{[1], [2]}.



Shu bilan birga, chet tilida o'qib tushunish birinchi tilga nisbatan kognitiv jihatdan yanada talabchan bo'lib, chunki o'quvchi ma'noni qurish bilan bir vaqtda kodni dekodlash, noma'lum birliklarni kontekstdan taxmin qilish va grammatik signallarni kuzatishga majbur bo'ladi [3].

O'zbek maktablarida boshlang'ich va o'rta bo'g'in kesishmasi bo'lgan 3–5-sinflarda ingliz tilida o'qib tushunishni neyropedagogik nuqtai nazardan, ayniqsa ijro funksiyalari bilan bog'liq mexanizmlar asosida tadqiq etish yetarli darajada tizimlashtirilmagan. Mavjud ishlarning bir qismi umumiy metodik tavsiyalar bilan cheklaniadi yoki til ko'nikmalarini baholashga urg'u beradi, biroq ijro funksiyalarini rivojlantirishni didaktik jarayonning markaziy elementi sifatida ko'rib chiqmaydi.

Ushbu maqolaning maqsadi 9–11 yoshli o'quvchilarda ingliz tilida matnni o'qib tushunishni rivojlantirishda ijro funksiyalarining o'rnini hamda ularni neyropedagogik yondashuv asosida pedagogik qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini asoslab berishdan iborat. Maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar hal etildi:

- o'qib tushunishning neyrokognitiv modeli doirasida ijro funksiyalarining funksional roli tahlil qilindi;
- 9–11 yoshli o'quvchilarda o'qib tushunishdagi tipik qiyinchiliklar ijro funksiyalari bilan bog'liq ko'rsatkichlar orqali tavsiflandi;
- sinf sharoitida ijro funksiyalariga tayangan o'qish strategiyalarini faollashtiruvchi pedagogik yechimlarning natijadorligi diagnostik materiallar asosida umumlashtirildi.

Tadqiqot muammosi shundan iboratki, ingliz tilida o'qib tushunish bo'yicha mashqlar tizimi ko'pincha matn mazmunini qayta aytishga yoki test javobini topishga yo'naltiriladi, biroq o'qish jarayonini boshqaradigan ijro funksiyalarini ongli ravishda rivojlantirish va o'qish strategiyalariga "kognitiv tayanch" sifatida integratsiya qilish mexanizmi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rossiya va mintaqaviy psixologik-pedagogik adabiyotlarda o'quv faoliyatining ixtiyoriyligi, regulyatsiya va nazorat mexanizmlari o'qish muvaffaqiyatining muhim sharti sifatida ko'p bora ta'kidlangan [6]. Bizning natijalarda ham "shoshilinch javob" va "birinchi talqinga yopishib qolish" kabi holatlar ixtiyoriy regulyatsiyaning yetarli darajada shakllanmaganini ko'rsatadi. Biroq muhim jihat shundaki, chet tilida o'qish vaziyatida regulyatsiya faqat intizom yoki motivatsiya bilan emas, balki kognitiv resurslarning taqsimlanishi bilan ham belgilanadi; shu sababli o'qituvchi talabni oshirishdan ko'ra, resursni tejaydigan va boshqaruvni qo'llab-quvvatlaydigan didaktik dizaynni tanlashi lozim. Masalan, matnning struktur signallarini oldindan ko'rsatish, savol turlarini matn bo'limlariga mos joylashtirish, chalg'ituvchi variantlarda "tanish so'z tuzog'i"ni ochiq muhokama qilish kabi usullar inhibitsiyani faollashtiradi va o'qishdagi impulsivlikni kamaytiradi. O'zbek metodik adabiyotida chet tilini o'qitishda o'qish turlarini farqlash, matnoldi va matndan keyingi mashqlar tizimi kabi masalalar ishlab chiqilgan bo'lsa-da, ushbu tizim ko'pincha ijro funksiyalarini aniq nishonga olgan pedagogik indikatorlar bilan yetarli darajada bog'lanmaydi [7].

Bizning maqolada taklif etilayotgan didaktik modelning ilmiy yangiligi shundaki, matnoldi bosqichda kognitiv maqsad qo'yish va taxmin yaratish kognitiv moslashuvni tayyorlaydi, matn ichida bo'laklab qayta tiklash ishchi xotirani barqarorlashtiradi, matndan keyingi bosqichda esa dalilga tayangan tekshiruv va xotoni tahlil qilish inhibitsiya hamda nazorat mexanizmlarini mustahkamlaydi. Ushbu model o'qituvchiga o'qish mashqlarini "qaysi ijro funksiyasini ishga tushiryapman" degan mezon asosida qayta ko'rib chiqish imkonini beradi va shu orqali o'qib tushunishdagi individual farqlarni pedagogik jihatdan boshqarish uchun yangi metodik asos yaratadi.

Shu bilan birga, olingan natijalar doirasida ehtiyotkor xulosa chiqarish zarur: ijro funksiyalarini kuchaytirish o'qib tushunishning yagona omili emas, chunki leksik zahira, fonologik xabardorlik va grammatik sezgirlik ham muhim ahamiyatga ega. Biroq aynan 9–11 yoshda, o'qish strategiyalari faol shakllanayotgan pallada ijro funksiyalarini ko'makchi mexanizm sifatida qo'llab-quvvatlash o'qishdagi "tushunaman, lekin javob bera olmayman" yoki "o'qidim, lekin mazmun yo'qoldi" kabi tipik muammolarni kamaytirishi mumkin. Kelgusida ushbu yondashuvni kengroq tanlamada, turli darajadagi til kompetensiyasiga ega sinflarda hamda uzoq muddatli ta'sirni baholashga yo'naltirilgan tadqiqot dizaynlarida tekshirish ilmiy jihatdan maqsadga muvofiqdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi neyropedagogik va kognitiv yondashuv integratsiyasiga tayandi. Neyropedagogik nuqtai nazardan o'qib tushunish jarayoni ko'p komponentli faoliyat sifatida ko'rib chiqildi: unda idrok, diqqatni selektiv boshqarish, ishchi xotirada ma'lumotni vaqtincha ushlab turish, semantik tarmoqni faollashtirish hamda nazorat va tuzatish mexanizmlari bir vaqtning o'zida ishlaydi. Ijro funksiyalari esa ushbu komponentlarni muvofiqlashtiruvchi "boshqaruv tizimi" sifatida operatsionallashtirildi. Tadqiqot dizayni aralash tipda bo'lib, nazariy tahlil natijalari sinf kuzatuv va pedagogik diagnostika orqali olingan empirik ma'lumotlar bilan



tekshirildi hamda boyitildi. Nazariy bosqichda o'qib tushunishning kognitiv modeli, ijro funksiyalarining rivojlantirish dinamikasi va ularning akademik ko'nikmalar bilan bog'liqligi bo'yicha xalqaro hamda mintaqaviy adabiyotlar tahlil qilindi. Mazkur tahlil matnni tushunish jarayonida ishchi xotira, inhibitsiya va kognitiv moslashuvning aniq funksiyalarini ajratish, shuningdek, 9–11 yoshda kuzatiladigan rivojlanish imkoniyatlarini belgilash uchun asos bo'ldi ^{[1]. [2]. [4]}.

Empirik bosqichda umumta'lim maktabi sharoitida 9–11 yoshli o'quvchilar bilan o'qish darslaridagi faoliyat kuzatildi; kuzatuv protokollarida o'quvchining matn bilan ishlash jarayonidagi xatti-harakatlari, to'xtalishlar, qayta o'qish, taxmin qilish, chalg'ish va o'zini tuzatish holatlari qayd etildi. Kuzatuv ma'lumotlari ijro funksiyalarining tashqi indikatorlari sifatida talqin qilindi, chunki boshlang'ich yoshdagi o'quvchilarda metakognitiv hisobotlar har doim ham yetarli darajada ishonchli bo'lavermaydi.

Pedagogik diagnostika doirasida o'qib tushunish bo'yicha yoshga mos inglizcha qisqa matnlar asosida topshiriqlar tuzildi; topshiriqlar faktini topish, bog'lanishni aniqlash, sabab–oqibatni tushunish va asosiy g'oyani ajratish kabi turli darajadagi tushunishni qamrab oldi. Shu bilan birga, ijro funksiyalarini bilvosita baholovchi ko'rsatkichlar sifatida ishchi xotira yuklamasini oshiruvchi “matndan keyin qayta tiklash” vazifalari, inhibitsiyani talab qiluvchi chalg'ituvchi variantli savollar hamda strategiyani o'zgartirishni talab qiluvchi “matnning keyingi qismida taxminni qayta ko'rib chiqish” topshiriqlari qo'llandi.

Ushbu metodlar aynan o'qib tushunish kontekstida ijro funksiyalari qanday ishlashini ko'rsatish uchun tanlandi, chunki laborator tipidagi testlar (masalan, abstrakt stimullar) maktabdagi real o'qish faoliyatiga to'liq ekvivalent bo'lmaydi. Ma'lumotlarni tahlil qilishda sifat tahlili va pedagogik talqin usullari ustuvor bo'lib, natijalar o'qib tushunishdagi xatolar tipologiyasi hamda ularning ehtimoliy ijro mexanizmlari bilan bog'liqligi orqali tizimlashtirildi; qo'shimcha ravishda, sinf amaliyotida qo'llangan neyropedagogik mikrointervensiyalar fonida kuzatilgan o'zgarishlar taqqoslandi.

Tadqiqotning etik jihatlar doirasida o'quvchilarning shaxsiy ma'lumotlari anonimlashtirildi, kuzatuv va diagnostika jarayonlari ta'lim jarayoniga zarar yetkazmaydigan shaklda tashkil etildi. Metodologik cheklov sifatida mazkur yondashuv ko'proq sinf kontekstiga yaqin, ekologik validlikka yo'naltirilgan bo'lib, natijalar neyropsixologik klinik testlar darajasidagi individual diagnostika da'vosini qilmaydi; biroq u didaktik qarorlar uchun amaliy ahamiyatga ega bo'lgan kognitiv izohlar beradi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Natijalar ijro funksiyalarining o'qib tushunish jarayonida “ko'rinmas” bo'lsa-da, muntazam ta'sir ko'rsatadigan boshqaruv omili ekanini ko'rsatdi. Kuzatuv va diagnostika materiallari asosida 9–11 yoshli o'quvchilarda ingliz tilida matnni tushunishdagi muvaffaqiyat ko'proq uch turdagi ijro mexanizmlari bilan barqaror bog'lanishi aniqlandi: ishchi xotira orqali mazmun birliklarini ushlab turish va bog'lash, inhibitsiya orqali keraksiz semantik taxminlarni va chalg'ituvchi variantlarni bostirish, kognitiv moslashuv orqali strategiyani vazifaga mos qayta sozlash.

Til bilimi nisbatan o'xshash bo'lgan o'quvchilar orasida ham aynan shu mexanizmlar kuchli bo'lgan guruh matndan asosiy g'oyani ajratishda, referentlarni to'g'ri aniqlashda va yashirin bog'lanishlarni topishda kamroq xato qilgani kuzatildi.

Birinchi natija ishchi xotiraning o'qib tushunishdagi rolini konkretlashtirdi. Matnning birinchi jumlarida berilgan ma'lumot keyingi jumalarda qayta ishlatilganda ishchi xotira yuklamasi ortadi; bu vaziyatda ishchi xotirasi nisbatan zaif o'quvchilar ko'pincha lokal ma'noga yopishib qolib, global mazmunni qurishda uzilishlar qiladi. Diagnostik topshiriqlarda bunday o'quvchilar matnning oxirgi qismiga oid savollarga javob berishda avvalgi kontekstni yo'qotib qo'yishi, shuningdek, sabab–oqibat munosabatini tiklashda “yaqin” so'zlarga tayangan holda taxminiy javob tanlashi bilan ajralib turdi.

Kuzatuv protokollarida esa ular tez-tez ortga qaytib, qayta o'qishi, satrlararo ko'z yugurtirish tartibsizligi va o'qish tezligining keskin pasayishi bilan tavsiflandi. Shu asosda ishchi xotira o'qishning “integratsiya bosqichi” uchun tayanch resurs ekani, ayniqsa chet tilida leksik dekodlash davom etayotgan sharoitda bu resursning tezroq band bo'lishi natijalarga ta'sir qilishi ko'rsatildi.

Ikkinchi natija inhibitsiyaning o'qib tushunishdagi filtrlovchi vazifasini ochib berdi. Chalg'ituvchi variantli savollarda ayrim o'quvchilar matnda uchragan tanish so'z bilan formal mos keladigan, biroq mazmunan noto'g'ri javobni tanlashga moyil bo'ldi. Bunday xatolar “so'z tanishligi effekti” bilan izohlanadigan inhibitsiya yetishmovchiligi indikatoriga o'xshash bo'lib, o'quvchi avtomatik faollashgan assotsiatsiyani to'xtata olmaydi va matnning mantiqiy kontekstiga qayta tekshirmaydi. Kuzatuvlarda inhibitsiyasi kuchliroq o'quvchilar savolni o'qigach, matndan dalil izlab qaytishi, muqobil javoblarni ichki taqqoslash orqali rad etishi, shuningdek, o'z javobini “matn shuni aytayptimi” mezon bilan tekshirishi ko'proq uchradi.

Inhibitsiya mexanizmi o'qishning nazorat komponenti sifatida namoyon bo'lib, ayniqsa qisqa muddatli test vaziyatlarida shoshilinch javob berish impulsini boshqarish bilan bog'liq holda ko'rindi. Uchinchi natija



kognitiv moslashuvning strategik rolini yoritdi. Matnning keyingi qismida oldingi taxminni o'zgartirishni talab qiladigan vaziyatlarda ayrim o'quvchilar "birinchi talqin"ni saqlab qolib, yangi ma'lumotni unga moslab talqin qilishga urindi; natijada mazmun buzildi. Moslashuvi yuqori o'quvchilar esa noto'g'ri talqinni rad etib, yangi dalil asosida qayta talqin qila oldi; bu esa inferensiya savollarida yuqoriroq natija bilan ifodalandi. Kuzatuv jihatidan bunday o'quvchilar o'qish jarayonida o'ziga xos pauzalar qiladi, "to'xtab tekshirish" odatini namoyon etadi va matnning struktur belgilariga e'tibor qaratadi. Moslashuv o'qib tushunish strategiyalarini vazifaga mos moslashtirish, masalan, fakt qidirishda skanerlash, umumiy mazmun uchun tez o'qish, murakkab jumlada esa sekinlashish kabi tartibga solish orqali namoyon bo'ldi. To'rtinchi natija neyropedagogik mikrointervensiyalar fonida kuzatilgan o'zgarishlarni tizimlashtirdi. Dars jarayonida qisqa, lekin muntazam qo'llangan boshqaruvga yo'naltirilgan yo'riqlar, jumladan, o'qishdan oldin maqsadni aniq belgilash, matn bo'limlaridan so'ng qisqa qayta tiklash, chalg'ituvchi so'zlarga "to'xtab tekshirish" qoidasini kiritish va taxminni dalil bilan tasdiqlash talabi o'quvchilarning xato profilini o'zgartirdi.

Natijalarda eng ko'zga tashlangan holat shuki, o'qib tushunishdagi muvaffaqiyat faqat lug'at hajmi ortishi bilan emas, balki ijro funksiyalarini ishga tushiradigan o'qish odatlari shakllanishi bilan bog'liq tarzda yaxshilandi. Diagnostika materiallarida fakt savollariga javob berishdan ko'ra inferensiya va asosiy g'oyani ajratish bo'yicha silljish sezilarliroq bo'ldi, bu esa ijro funksiyalarining aynan yuqori darajadagi tushunishga xizmat qilishini ko'rsatadi. Olingan natijalar chet tilida o'qib tushunishni til tizimi doirasida emas, balki boshqariladigan kognitiv faoliyat sifatida ko'rish zarurligini ilmiy jihatdan asoslaydi. Ijro funksiyalarining ishchi xotira, inhibitsiya va kognitiv moslashuvdan iborat uchligi matnni tushunishning turli bosqichlarida turlicha "yetakchi" bo'lib, 9–11 yoshda bu tizim hali shakllanish jarayonida bo'lgani uchun didaktik qo'llab-quvvatlashga sezgir ekani ko'rindi. Miyake va hamkorlari ijro funksiyalarini ajraluvchi, ammo o'zaro bog'liq komponentlar sifatida talqin qilib, aynan shu komponentlar kombinatsiyasi murakkab kognitiv vazifalardagi farqlarni izohlashini ko'rsatadi ^[1].

Bizning kuzatuvlar ham o'qib tushunishdagi "umumiy qiyinchiliklar" ko'pincha bitta komponentning pasa-yishi bilan emas, balki komponentlararo muvofiqlashtirishning beqarorligi bilan bog'liq ekanini anglatadi; masalan, ishchi xotira cheklangan sharoitda inhibitsiya ham zaiflashib, o'quvchi tanish so'zga asoslangan noto'g'ri javobni bostira olmaydi.

Baddeley tomonidan ishlab chiqilgan ishchi xotira modeli o'qish va tilni qayta ishlashda vaqtinchalik saqlash va boshqaruv mexanizmlari muhimligini ta'kidlaydi ^[2]. Chet tilida o'qishda bu mexanizmlar ikki baravar band bo'lishi mumkin, chunki fonologik halqa va markaziy boshqaruv bir vaqtning o'zida dekodlash va integratsiyani ko'taradi. Biz aniqlagan "kontekst yo'qolishi" xatolari aynan shu nazariy tushuntirishga mos keladi: o'quvchi matnning keyingi qismida avvalgi ma'lumotni ushlab tura olmagan uchun integratsiya zaiflashadi. Bu holat o'qitish amaliyotida matnni kichik semantik bo'laklarga ajratish va bo'lakdan so'ng qisqa qayta tiklash kabi usullarni neyropedagogik asoslangan chora sifatida ko'rishga imkon beradi; bunda maqsad faqat "eslab qolish" emas, balki ishchi xotira yuklamasini boshqarishdir. Diamond ijro funksiyalarining ta'lim natijalariga kuchli ta'sirini, ayniqsa bolalik davrida ularni rivojlantirish o'qish va yozishdagi yutuqlarga olib kelishini ko'rsatadi ^[4].

Bizning natijalarda ijro funksiyalariga yo'naltirilgan mikrointervensiyalar inferensiya va asosiy g'oyani ajratish kabi yuqori darajadagi tushunish komponentlarini kuchaytirgani Diamondning pozitsiyasini chet tili o'qitish kontekstida ham qo'llab-quvvatlaydi. Biroq bu yerda muhim farq shundaki, chet tilida o'qish "kognitiv xarajat"ni oshiradi, shu sababli ijro funksiyalarini rivojlantirish alohida mashqlar bilan emas, bevosita o'qish strategiyalari ichida integratsiyalangan holda berilganda samaraliroq ko'rinadi. Ya'ni, ijro funksiyalarini alohida "trening" qilishdan ko'ra, o'qish jarayonidagi boshqaruv qarorlarini muntazam modellashtirish va o'quvchini shu qarorlar tilida fikrlashga o'rgatish muhimroq. O'qib tushunishning sodda modeli doirasida o'qish natijasi dekodlash va lingvistik tushunish komponentlari ko'paytmasi sifatida talqin qilinadi ^[5].

Bizning tahlil bu modelni inkor etmaydi, biroq 9–11 yoshli o'quvchilarda aynan ijro funksiyalari ushbu ikki komponent o'rtasidagi "amaliy ko'prik" vazifasini bajarishini ko'rsatadi: dekodlash nisbatan avtomatlashtirilmagan sharoitda lingvistik tushunish imkoniyatlari ishchi xotira va inhibitsiya tomonidan cheklanadi.

Demak, til ko'nikmalarini rivojlantirish bilan bir qatorda, o'quvchi dekodlash jarayonida o'z e'tiborini boshqarish, keraksiz assotsiatsiyalarni to'xtatish va ma'noni qayta qurish strategiyasini o'zgartirishni o'rganishi kerak. Shu jihatdan neyropedagogik yondashuv o'qitishning "faqat matn"ga qaratilgan texnik ko'rinishini "o'qish jarayonini boshqarish"ga qaratilgan ko'rinishga aylantiradi.

XULOSA

Tadqiqot 9–11 yoshli o'quvchilarda ingliz tilida matnni o'qib tushunish ko'nikmalarini rivojlantirishda ijro funksiyalari boshqaruvchi kognitiv mexanizm sifatida hal qiluvchi o'rin egallashini asoslab berdi. Ishchi xotira matn bo'laklari o'rtasida ma'no integratsiyasini ta'minlashi, inhibitsiya chalg'ituvchi assotsiatsiyalar va impulsiv javoblarni bostirishi, kognitiv moslashuv esa talqinni qayta qurish hamda strategiyani vazifaga moslashtirishni qo'llab-quvvatlashi aniqlashtirildi.



Neyropedagogik yondashuv doirasida o'qish strategiyalarini aynan ijro funksiyalariga tayangan holda loyihalash o'quvchilarning inferensiya, asosiy g'oyani ajratish va dalilga tayangan tekshiruv ko'nikmalarini kuchaytirish uchun mustahkam nazariy hamda amaliy asos yaratadi. Amaliy jihatdan ushbu natijalar dars dizaynida matnni bo'laklab qayta tiklash, dalil bilan tekshirish odatini shakllantirish va taxminni yangilashga undovchi topshiriqlar ulushini oshirish zarurligini ko'rsatadi. Kelgusida ijro funksiyalariga yo'naltirilgan o'qish intervensiyalarining uzoq muddatli samarasi, individual farqlarni hisobga oluvchi moslashtirilgan metodikalar hamda raqamli o'qish muhitida ijro boshqaruvining transformatsiyasi alohida tadqiqot yo'nalishi sifatida qaralishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Miyake A., Friedman N.P., Emerson M.J., Witzki A.H., Howerter A., Wager T.D. The unity and diversity of executive functions and their contributions to complex "frontal lobe" tasks: A latent variable analysis. – Cambridge: MIT Press, 2000. – 100 p.
2. Baddeley A. Working memory: theories, models, and controversies. – London: Psychology Press, 2012. – 256 p.
3. Grabe W., Stoller F.L. Teaching and researching reading. – London: Routledge, 2013. – 264 p.
4. Diamond A. Executive functions. – New York: Annual Review of Psychology, 2013. – 135–168 p.
5. Hoover W.A., Gough P.B. The simple view of reading. – New York: Reading and Writing, 1990. – 127–160 p.
6. Выготский Л.С. Мышление и речь. – Москва: Издательство "Лабиринт", 1999. – 352 с.
7. Jalolov J.J. Chet til o'qitish metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2012. – 320 b.
8. Mahkamov U.X. Ingliz tilini o'qitishda o'qish ko'nikmalarini rivojlantirish metodikasi. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018. – 180 b.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №1(2)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.